QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
FILOLOGIYA
PHILOLOGY
https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.022

UDK: 811.512

BADIIY ASARLARDA QAHRAMON PORTRETINI TARJIMA QILISHNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Nurdinova Fotima Xolmirzayevna
Namangan davlat texnika universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha PhD
abdurauf9222@mail.ru
ORCID: 0009-0004-9113-1424

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy tarjimada qahramon portretini qayta yaratishning lingvopragmatik xususiyatlari Mixail Sholoxovning «Inson taqdiri» asari hamda uning Mirzakalon Ismoiliy tomonidan o‘zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimasi misolida tadqiq etilgan. Badiiy matnda personajning tashqi ko‘rinishi, individual xarakter xususiyatlari, ruhiy holati va nutqiy o‘ziga xosliklarini tarjimada adekvat ifodalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Asliyat va tarjima matnlaridagi tasviriy vositalar, sifatlashlar, o‘xshatishlar hamda milliy-madaniy konnotatsiyalarning qo‘llanilishi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, tarjimonning muallif uslubini saqlash, obrazlilikni qayta yaratish, kontekstual ma’nolarni yetkazish va tarjima tilining milliy xususiyatlariga mos leksik birliklarni tanlash mahorati yoritilgan. Tahlillar asosida qahramon portretini tarjima qilishda so‘zma-so‘z muqobillikdan ko‘ra, asliyatdagi obrazlilik, kommunikativ maqsad va pragmatik ta’sirni saqlash muhim ekanligi asoslab berilgan.

Ka’lit so‘zlar: badiiy tarjima, lingvopragmatika, qahramon portreti, badiiy obraz, tarjima adekvatligi, pragmatik ekvivalentlik, obrazlilik, muallif uslubi, tasviriy vositalar, milliy-madaniy konnotatsiya, leksik tanlov.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ПОРТРЕТА ГЕРОЯ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. В настоящей статье лингвопрагматические особенности воссоздания портрета героя в художественном переводе исследуются на материале произведения Михаила Шолохова «Судьба человека» и его перевода на узбекский язык, выполненного Мирзакаланом Исмаили. Особое внимание уделено вопросам адекватной передачи в переводе внешнего облика персонажа, индивидуальных черт характера, психологического состояния и речевых особенностей. Проведён сопоставительный анализ использования изобразительных средств, эпитетов, сравнений, а также

национально-культурных коннотаций в оригинале и переводе. Кроме того, освещается мастерство переводчика в сохранении авторского стиля, воссоздании образности, передаче контекстуальных значений и подборе лексических единиц, соответствующих национальным особенностям языка перевода. На основе проведённого анализа обосновывается, что при переводе портрета героя важнее не буквальное соответствие, а сохранение образности оригинала, коммуникативной цели и прагматического воздействия.

Ключевые слова: художественный перевод, лингвопрагматика, портрет героя, художественный образ, адекватность перевода, прагматическая эквивалентность, образность, авторский стиль, изобразительные средства, национально-культурная коннотация, лексический выбор.

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF TRANSLATING CHARACTER PORTRAITS IN LITERARY WORKS

Abstract. This article examines the linguopragmatic features of recreating a character's portrait in literary translation, using Mikhail Sholokhov's The Fate of a Man and its Uzbek translation by Mirzakalon Ismoiliy as the research material. Particular attention is paid to the adequate rendering in translation of the character's physical appearance, individual personality traits, psychological state, and speech peculiarities. A comparative analysis is conducted of the use of figurative devices, epithets, similes, and national-cultural connotations in the source and target texts. The article also highlights the translator's skill in preserving the author's style, recreating imagery, conveying contextual meanings, and selecting lexical units that suit the national characteristics of the target language. Based on the analysis, it is substantiated that, in translating a character's portrait, preserving the imagery of the original, its communicative purpose, and its pragmatic effect is more important than word-for-word equivalence.

Keywords: literary translation, linguopragmatics, character portrait, literary image, translation adequacy, pragmatic equivalence, imagery, authorial style, figurative devices, national-cultural connotation, lexical choice.

KIRISH. Bizga ma’lumki, tarjima xalqlar o‘rtasidagi mushtaraklikni, madaniyatlararo munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilib kelgan. Bunda badiiy tarjimaning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, badiiy tarjimaning asosiy o‘ziga xosliklaridan biri obrazlilikni qayta ifodalash masalasidir. Ya’ni badiiy tarjimada asliyat matnida ifodalangan qahramonlar va ularning individual xislatlarini tarjima jarayonida ochib berish tarjimonning mahorati sanaladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asar tarjimasida asosiy urg‘u obrazni ochib berishga qaratilmog‘i lozim. Bu borada tarjimashunos olim G‘.Salomov: “Badiiy tarjimaning asosiy xislatlaridan biri obrazlilik ekan, bunda so‘zni - so‘z bilan, jumlani - jumla bilan emas obrazni - obraz bilan berish tarjimon oldida ko‘ndalang bo‘ladigan muammo hisoblanadi”, - deb ta’kidlaydi [1. 92-bet].

Badiiy asar qahramonlari individual xususiyatlari masalasida so‘z borganida, avvalo, qahramonlarning tashqi ko‘rinishlari, adabiyot tili bilan aytganda portreti diqqat markazda

turadi. Misol uchun jismonan kuchli, baquvvat kishini arslonga qiyoslansa, ayyor, makkor kishilarni tulkiga, yuvosh, ma’sumlikni qo‘yga o‘xshatib, timsol qilib olinadi. Badiiy asarlardagi qahramon portreti tarjimasining lingvopragmatik xususiyatilarini ochib berish, asliyat matnida nazarda tutilgan ma’noni tarjima matniga ko‘chirish masalasi tarjima amaliyotining eng muhim jihatlaridan hisoblanadi. Bunda, albatta, tarjimaning lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganish masalasi birinchi o‘ringa chiqadi.

Pragmatika tilshunoslikning muhim sohalaridan biridir. U bizga tildagi so‘z va iboralarning asl ma’nosidan tashqari muayyan bir matn ichida qanday tuzilgan va qanday ma’no anglatishini aniqlashimiz imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, pragmatika so‘zlarning so‘zma-so‘z ma’nosi bilan biron-bir matnda ifodalab kelgan ma’nolari o‘rtasidagi farqlarni ko‘rib chiqadi. Odamlar bir-birlari bilan muloqot qilganlarida nimani anglatishini tushunishga intiladi.

Pragmatika ayni paytda tarjimashunoslikka oid muhim nazariy tushuncha bo‘lib, tarjima asarlarini pragmatika nazariyasiga asosan o‘rganish o‘ta muhimdir. Pragmatika muammosi qator xorijlik va o‘zbek tarjimashunos, tilshunos va adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Yevropa va rus olimlaridan Bar Xillel o‘zining “Pragmatics of natural languages” nomli kitobida, E.Aznaurovaning “Прагматика художественного слова” asarida, I.Bajenovaning “Эмотции, прагматика, текст” nomli asarida, V.Komissarovning “Теория перевода (лингвистические аспекти)” nomli asari, o‘zbek olimlaridan S.Rahimovning “Типология текстообразующих категорий: Семантика. Прагматика. Функция” nomli tadqiqoti, Sh.Safarovning “Pragmalingvistika” asari, G‘.Hoshimovning “К теории метаязыка транслятология” nomli maqolasi, I.G‘ofurov, N.Qambarov, O.Mo‘minovlarning “Tarjima nazariyasi” risolasi, Q.Musayevning “Tarjima nazariyasi asoslari” asari, M.Umarxo‘jaevning “Yevropadagi hozirgi lingvistik yo‘nalishlar” nomli tadqiqotlarida pragmatika nazariyasining tarjima amaliyotidagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

«Pragmatika» (yunoncha pragma - ish, harakat) aslida falsafiy tushuncha bo‘lib, u Sokratdan oldingi davrlarda ham qo‘llanishda bo‘lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirgan. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30-yillarida pragmatizm g‘oyalarining keng targ‘ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ‘ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vilgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Har qanday badiiy matn birinchi navbatda uning yaratuvchisining muayyan kommunikativ maqsadini amalga oshirilishiga xizmat qiladi va tinglovchi yoki kitobxonning, tarjimonning asosiy vazifasi matndagi ana shu kommunikativ, informatsion va boshqa xarakterdagi muallif niyatini to‘laligicha o‘z tilida tushunish va qayta aks ettirishdir. Tarjimon, kitobxon yoki tinglovchi matndagi axborotning retseptori sifatida uning eng muhim tarkibiy qismlarini aniqlab olishi va o‘zining retseptorlik rolini asliyatdagi axborotdagi bosh maqsadni eng yuqori darajadagi ekvivalentlik asosida uzatuvchi rolini bajarishi lozim. Bunda tillararo ekvivalentlikning pragmatik omillariga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Matnning kommunikativ maqsadini, kommunikativ ta’sirini,

retseptorga yo‘naltirilganligini o‘z ichiga oluvchi pragmatiklik darajasi boshqa tarkibiy qismlarning boshqaruvchilik funksiyasini bajaradi va tarjimada ekvivalentlik tushunchasiga borib taqaladi. Binobarin, lisoniy birlik semantikasidagi konnotativ pragmatik ma’no va uning tarjimada berilishi pragmatik ekvivalentlik, asliyat va tarjima tilidagi ekvivalentlik darajalari, pragmatik ma’noning implitsit ifodalanishi, pragmatik adekvatlik tushunchalarining shakllanishiga olib keldi. Asliyat va tarjima matnning pragmatik ekvivalentligi tushunchasi aynan pragmatik maqsadning o‘zaro mos kelishligi, kommunikativ ta’sirning adekvatligini o‘z ichiga oladi. Yu.V.Vannikov o‘z tadqiqotida pragmatik adekvatlik masalasini asliyat va tarjima matnining pragmatik ekvivalentligi nuqtai-nazardan o‘rganib ularni quyidagi to‘rtta tipga bo‘lib o‘rganishni taklif qiladi: 1) retseptorning intellektual xususiyatlariga mos keluvchi va unga asliyat matni darajasida kommunikativ ta’sir qiluvchi pragmatik ekvivalentlik; 2) retseptorning dunyo qarashiga, munosabatlariga, baholash kriteriyalariga mos keluvchi pragmatik ekvivalentlik; 3) retseptorning xulq-atvoriga, tashabbuskorligiga ta’sir qiluvchi pragmatik ekvivalentlik; 4) retseptor xulq-atvoriga qisman ta’sir qiluvchi pragmatik ekvivalentlik. Matnning umumiy kommunikativ ta’siri deganimmizda nafaqat asliyat va tarjima tili retseptorlarining pragmatik ekvivalentligining to‘liq bo‘lishligi, balki ularning matndan oladigan pragmatik axborotning bir xilligi ham tushuniladi.

M.Sholoxovning “Судьба человека” asarida ham muallif ko‘p o‘rinlarda yuqorida ta’kidlaganimizdek, tarixiylik hamda milliylikka xos bo‘lgan, bir millatga mansub bo‘lgan so‘z va iboralardan keng foydalangan. Muallifning aytmoqchi bo‘lgan fikrlari tarjima matnida o‘quvchi uchun asliyatdagiday yetib borishi, tushunarli bo‘lishi juda muhim masala hisoblanadi.Tarjimada pragmatik adekvatlikka erishish uchun tarjimon ,avvalo, asar muallifi uslubini obdon o‘rganish kerak bo‘ladi. Asliyat muallif o‘z uslubiga ko‘ra nimani nazarda tutgan, qanday g‘oyani yoritishga bel bog‘lagan, kabi masalalarga oydinlik kiritib olish birinchi masala hisoblanadi. Muallif o‘zi yaratgan fikrini asar qahramonlari va ularning xarakterlari, ko‘rinishlari yordamida ifoda etadi. Muallif qahramonlarni o‘zi yaratadi, ularni individual xususiyatlarini o‘zi kashf etadi va ularni jonlantiradi. Aynan ana shu xislatlarni tarjima qilishdan avval to‘la anglab yetish tarjima matnini adekvatlikka yaqinlashtiradi. Masalan, Mixail Sholoxovning “Судьба человека” asarida muallif o‘z qahramonini shunday ta’riflaydi: *“Жена воспитывалас в детском доме. Сиротка. Хорошая попалас мне девка! Смирная, веселая, угодливая и умница. Не мне чета”* [2. 13-bet].

Qarangki, muallif o‘z qahramonini tartibli, yuvvosh, esli-xushli ekanligini ta’riflashdan avval uni bolalar uyida tarbiyalanganini va ota-onasiz yetim ekanligini ta’kidlab, o‘quvchiga qahramonning hech bir suyanadigan yoki erkalik qiladigan odami yo‘qligini tushuntirib o‘tayapti. Shu bilan o‘quvchi ko‘z o‘ngida qiyinchilik ko‘rgan, bolaligidan erkalik, bolalarcha sho‘xlik nimaligini bilmay o‘sgan kishi, aniqrog‘i, ayol kishining obrazini gavdalantirgan. Asar qahramonini asliyat muallifi tomonidan go‘yoki, chindan ko‘zga ko‘ringanday jonli qilib tasvirlab berilganligi va shu tasvir orqali uning individual xususiyatlari ochib berilganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Muallif o‘z uslubiga ko‘ra o‘zi yaratgan qahramonining xarakterlarini ham ochib bera olgan. Ushbu tasviriy ifoda asarning Mirzakalon Ismoiliy tomonidan qilingan tarjima matnida quyidagicha ifodalangan:

“Xotinim bolalar uyida tarbiyalangan. Yetimcha. Toleimga juda yaxshi xotin chiqdi! Mo‘mingina, xushchaqchaq, qo‘l-oyog‘i yengil, eslikkina edi – menga sira ham o‘xshamasdi” [3. 13-bet].

Tarjima matnida asliyat muallifi gavdalantirgan asar qahramoni o‘z aksini to‘laqonli aks ettirilgan. Bunday deyishimizga asos shundaki, tarjimon muallif uslubini tarjimada saqlagan holda qahramoning individual xususiyatlarini birma-bir ochib bergan. Asliyat matnidagi “*Сиротка, смирная, веселая, угодливая и умница*” kabi sifatlashlarni tarjimon “yetimcha, mo‘mingina, xushchaqchaq, qo‘l-oyog‘i yengil, eslikkina” kabi so‘zlar bilan tarjima qilgan. Tarjimon muallif uslubini saqlash bilan bir qatorda asliyatda berilgan sifatlashlarni o‘zbek kitobxoniga moslab, tushunarli qilib milliy, xalq orasida keng iste’molda bo‘lgan so‘z va iboralardan foydalangan.

Yuqoridagi fikrlarni davomi sifatida aytishimiz mumkinki, har bir asarni tarjima qilishga yoki tarjima qilingan asarni tahlil qiladigan bo‘lsak, avvalo, asliyat matni muallifining o‘ziga xos uslubi, didi, obrazlar olami, qisqa qilib aytganda, uning ijodiy faoliyati bilan tanishish kerak bo‘ladi. Asliyat muallifi uslubi bilan tarjimon uslubi bir-biriga hamohang kelsagina asar tarjima tilida qaytadan tiriladi, bor go‘zalligi, bo‘yoqdorliligi bilan o‘zga tilda paydo bo‘ladi. Tarjimonni haqiqiy ijodkor sifatida ish yuritganini guvohi bo‘lamiz. M.Sholoxovning “Inson taqdiri” hikoyasidan yana bir misolga e’tiboringizni qaratmoqchimiz: “Парень я был тогда здоровый и сильный, как дьявол, выпит мог много, а до дому всегда добирался на своих ногах” [4. 16-bet].

Asar muallifi o‘z qahramonini tasvirlashda “здоровый и сильный, как дьявол” deya tasvirlash orqali qahramonini kuchli, baquvvat ekanligini “dev”ga qiyoslagan. Tarjimada qiyos etilgan “dev” so‘zi orqali biror bir maxluq tushunilmaydi, balki obraz tushuniladi. Ya’ni kuchlilik timsolidagi obrazdir. Asar tarjimoni ushbu obrazni quyidagicha tarjima qilgan: “Men u mahallar devdek kuchli, norg‘il yigit edim, ichishga kelganda juda ko‘p icha olardim, ammo lekin uyga har mahal o‘z oyog‘im bilan yurib kelardim” [5. 14-bet].

Tarjima matnidan ko‘rinib turibdiki, asliyatdagi “здоровый и сильный, как дьявол” sifatlashlarni “devdek kuchli, norg‘il” deb tarjima qilgan. Aslida, rus tilidagi “как дьявол” so‘zi o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z o‘girilganda “iblisdek” degan tarjimani beradi. Lekin o‘zbeklarda “iblis, shayton” kuchlilk ramzi emas, aksincha, salbiy ma’noda ishlatiluvchi so‘zdir. Asliyatdagi obrazlilikni tarjimada xuddi o‘zidek ta’sirchan va obrazli qilib ifodalash uchun tarjimon muallif uslubini yo‘qotmagan holda obrazli qilib, o‘z o‘quvchisiga tushunarli bo‘lishi uchun “iblisdek kuchli” deb emas, “devdek kuchli” degan o‘xshatishdan foydalangan. Tarjima matni o‘quvchisi uchun “devdek kuchli” degan sifatlash tushunarli hol bo‘lib, hech qanday qiyinchiliklarsiz asar qahramonining oddiy kuchli inson emas, tabiatan o‘ta baquvvat va shu bilan bir qatorda gavdali ekanligini ko‘z oldiga keltira oladi. Bir qarashda tarjima ishi jo‘n, oddiy bo‘lib ko‘rinsa-da, tarjimon asarni tarjima qilishda so‘zni-so‘z bilan, jumlani-jumla bilan emas obrazni-obraz bilan tarjima qilgan.

Badiiy asar tarjimasida yana bir muhim jihat borki, tarjimada bu jihatni hisobga olmasdan ish yuritish mumkin emas. Ya’ni badiiy asar turli xil uslublarda yozilgan bo‘lishi mumkin, lekin ko‘p narsa asarda tasvirlanayotgan davr, tanlangan mavzu va ifodalanayotgan

voqealarning xarakteriga ham bog‘liq bo‘ladi. Yuqoridagi tahlil uchun olingan misollarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asar tarixiy davrni, urushga oid voqealarni tasvirlashga bag‘ishlangan. Asar muallifi o‘sha davr voqealarini tasvirlashda o‘z qahramonlarini tasvirlanayotgan voqealarga moslab gavdalantirgan va obrazli qilib tasvirlab bergan. Buni to‘g‘ri anglagan tarjimon asarni tarjima qilishda mahorat ko‘rsatib, asarni boshqa bir tilda qayta yarata olgan.

Tarjima ishini tahlil qilar ekanmiz, personaj nutqi xususiyatlarini o‘quvchiga yetkazish masalasida ham asliyatga monandlikni kuzatishimiz mumkin. Buni quyidagi misolda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

«Его речь была тиха, но в ней чувствовалась стальная сила» [6. 45-bet].

Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi:

«Uning gaplari sekin edi, lekin unda po‘lat kabi kuch sezilardi» [7. 45-bet].

Tarjima jarayonida nutqiy o‘ziga xoslik saqlangan bo‘lib, bu qahramonning ichki kuchini aks ettirish uchun muhim. Original matndagi “стальная сила” iborasi “po‘lat kabi kuch” deb tarjima qilingan.

Mirzakalon Ismoiliy tomonidan amalga oshirilgan tarjima ishi qiyinchiliklari va usullari borasida fikr yuritganimizda, avvalo semantik moslikni saqlab qolinganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu yerda asliyat matnning hissiy va madaniy mazmunini yetkazib berish tarjimonning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan.

Misol:

«У него были руки, изъеденные временем».

Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi:

«Uning qo‘llari vaqtning izlarini o‘zida aks ettirardi».

Tarjimada “временем” so‘zining “vaqtning izlarini” sifatida berilishi qahramonning qiyinchiliklarga boy hayotini o‘quvchiga yaqinlashtiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qahramon portreti tarjimasi bu tarjima nazariyasining murakkab, ko‘p darajali va lingvopragmatik vositalar bilan to‘ldirilgan sohasi bo‘lib, u nafaqat lingvistik, balki semiotik va madaniyatshunoslik yondashuvlarni ham talab etadi. Tarjimon bu jarayonda tilni emas, balki tafakkur tizimlarini, madaniy metaforani va muallif intensionini uzviy tarzda yetkazishi kerak. Lingvopragmatik yondashuv, ayniqsa, qahramonning stilistik xususiyatlari, leksik tanlovi, nutqining ijtimoiy funksiyasi va madaniy konnotatsiyalarini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi.

Qahramon portretini tarjima qilishda tarjimon quyidagi asosiy lingvopragmatik to‘siqlar paydo bo’lishi mumkin:

- kontekstual pragmatik tafovutlar - asliy matnda ishlatilgan metaforalar, ijtimoiy shartlangan iboralar va estetik mezonlar tarjima tili madaniyatida mavjud bo‘lmasligi mumkin;

- stilistik semantika mosligi - asl matndagi portret tasvirlarida ishlatilgan stilistik vositalar (metonimiya, ironik ifoda, past stil) tarjimada buzilishi mumkin;

- pragmatik funksiyaning saqlanishi - portret faqatgina tasvir emas, balki dramatik funksiya, syujetdagi rol, ijtimoiy signal hamdir. Tarjimada bu funksiya yo‘qolsa, obraz tushunarsiz yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin;

- pragmatik adaptatsiya - ba’zi holatlarda, tarjimon pragmatik tenglama orqali ifodani moslashtirishi kerak, bu esa kompensatsiya, tashlab ketish yoki transpozitsiya vositasida amalga oshiriladi.

XULOSA. Mirzakalon Ismoiliy tomonidan qilingan “Inson taqdiri” asarining tarjimasi lingvopragmatik tamoyillarga mos keladi. Qahramon portretlari hissiy-tasviriy jihatdan boy ifodalanib, tarjimada matnning madaniy va hissiy konteksti muvaffaqiyatli saqlangan. Lingvopragmatik yondashuv bu jarayonda muhim o‘rin tutgan bo‘lib, tarjimonning til va madaniyat bo‘yicha chuqur bilimini ko‘rsatadi.

“Inson taqdiri” asarida qahramon portreti tarjimasining lingvopragmatik xususiyatlari to‘la ochib berilgan.

Badiiy asarlarda tabiat manzaralari tasviri bilan bir qatorda asar qahramonlari porteti tasviriga ham duch kelganmiz, albatta. Bu esa ijodkor mahoratining ne chog‘lik boy ekanligini ko‘rsatadi. Chunki tabiat manzaralari tasvirida ijodkorning o‘zi qalamga olayotgan makonga munosabati, u joyni qanchalik bilishi, qahramonlar dunyosi va ular yashayotgan muhitni naqadar chuqur his qilishi bilinadi. Shuning uchun ham badiiy asarlarda qahramonlar tasviri asarning asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Badiiy asarda muallif o'z maqsadini ro'yobga chiqarish uchun tasviriy va ifodaviy vositalardan foydalanadi. Asardagi personajlar, asar qahramonlari kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, muayyan tuyg‘uni his etishi, ko‘rish, eshitish mumkin bo‘lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsurlar tasviriy vositalar hisoblansa, asarda so‘z va iboralarning turli ma'no tovlanishlari, majoziy xususiyatlari, voqea-hodisalarni turli yo‘llar bilan ifodalash usulllari - ifodaviy vositalar hisoblanadi. M.Sholoxovning “Судьба человека” asarida urush voqealari tasviri qalamga olingan bo‘lsa, undagi asosiy voqea-hodisalar asar qahramonlari orqali ifodalab berilgan. Ayniqsa, qahramonlar tasviri juda ifodali qilib aks ettirilgan. Tadqiqotimiz natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, asarning o‘zbek tilidagi matnida ham asar qahramonlari portreti aniq va tushunarli qilib tasvirlab berilgan. Buni tadqiqotimiz uchun olingan matnlar tahlilida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi nashiryoti, 1983. –B.92.
2. Шолохов Михаил. Судьба человека. –М: 1957, –С.13.
3. Sholoxov M. Inson taqdiri (Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi). –Toshkent: 1959, –B.13.
4. Шолохов М. Судьба человека. –М: 1957. -С.16.
5. Sholoxov M. Inson taqdiri (Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi). –Toshkent: 1959, –B.14.
6. Шолохов М. Судьба человека. –М: 1957. –С.45.
7. Sholoxov M. Inson taqdiri (Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi). –Toshkent: 1959, –B.45.